O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TALABA VA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY
FAOLLIGINI OSHIRISH MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI

TOSHKENT SHAHAR YOSHLAR ISHLARI BOSHQARMASI

O‘ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI TOSHKENT SHAHAR KENGASHI

"MA’RIFAT" TARG‘IBOTCHILAR JAMIYATI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI
O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO‘YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ

“SIFATLI TA’LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI”

MAVZUSIDAGI III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TO’PLAMI

Sifatli ta'lim -
taraqqiyot poydevori

2025 - YIL 15 - MAY

“SIFATLI TA’LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI” MAVZUSIDAGI III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO`PLAMI // TOSHKENT, 2025-YIL 15-MAY.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2019-YIL 30-AVGUSTDAGI **“YOSHLARNI ILM-FAN SOHASIGA JALB ETISH VA ULARNING TASHABBUSLARINI QO’LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO’G’RISIDA”**GI PQ-4433-SON QARORI HAMDA OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGINING 2024-YIL 27-DEKABRDAGI **“2025-YIL XALQARO VA RESPUBLIKA MIQYOSIDA O‘TKAZILADIGAN ILMIY VA ILMIY-TEXNIK TADBIRLAR REJALARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA”**GI 490-SON BUYRUG‘I 2-ILOVA 95-BANDIDA BELGILANGAN VAZIFALAR IJROSINI TA’MINLASH HAMDA **2025-YIL “ATROF MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI”** MUNOSABATI BILAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI, MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURDAGI TALABA VA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH MARKAZI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI, YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI TOSHKENT SHAHAR BOSHQARMASI, O‘ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI TOSHKENT SHAHAR HUDUDIY KENGASHI, “MA’RIFAT” TARG‘IBOTCHILAR JAMIYATI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO‘YICHA MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ HAMKORLIGIDA **2025-YIL 15-MAY** KUNI **“SIFATLI TA’LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI”** MAVZUSIDAGI III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI O‘TKAZILDI,

TASHKILIY QO’MITA:

JALOLIDDIN YUSUBOV – FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSC), DOTSENT;
ULUG`BEK TO’XTAYEV – O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XODIMI;
SHERZOD SHARIPOV – O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI TALABASI;
SEVINCH MUSTAFOYEVA – O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI TALABASI;
HUSNIDA BO‘RIYEVA – O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI TALABASI.

MAQOLALARNING TO’G’RI VA ANIQLIGIGA MUALLIFLAR MAS’ULDIR.

© SIFATLI TA’LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI

Sifatli ta'lim - taraqqiyot poydevori

Tarixni o‘rgatish orqali biz faqat o‘tmishni emas, balki kelajakni anglaydigan, bunyodkor fikrga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalaymiz. Bu esa, shubhasiz, sifatli ta’limning asosiy mezonidir.

Xulosa

Tarixiy ong va tafakkurni shakllantirish – bu zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib, yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy saboqlardan to‘g‘ri xulosa chiqarish va Vatanga sadoqat tuyg‘usini qaror toptirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etish, fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish va tarixni hayotiy misollar orqali o‘rgatish orqali o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirish mumkin. Sifatli ta’lim tarixiy ongli, teran fikrlovchi va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni kamol toptirishning muhim yo‘nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Toshxo‘jayev Sh. *Tarix va milliy ong*. – T.: Fan, 2015.
3. Yo‘ldoshev A. *Tarix ta’limida interfaol metodlar*. – “Pedagogik izlanishlar” jurnali, 2019, №4.
4. Sobirova Z. *Tarixiy ongni shakllantirishda integratsiyalashgan yondashuv*. – “Tarix va Haqiqat” jurnali, 2020, №2.
5. Qodirov A., Nurmuxamedova D. *Innovatsion texnologiyalar yordamida tarixiy tafakkurni shakllantirish*. – Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2021.

SHARQ MANBALARINING LORD BAYRON SHE’RIYATI TEMATIKASIGA TA’SIRI: NAZARIY TAHLIL

Mirusmanova Ziyoda Ziyodulla qizi
Fan va texnologiyalar universiteti Tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ingliz adabiyotida madaniyatlararo aloqalarning o‘ziga xos badiiy talqini aynan Lord Jorj Gordon Bayron ijodida yorqin namoyon bo‘ladi. Shoirning “Sharq ertaklari” deb nom olgan asarlari turkumi – *The Giaour*, *The Bride of Abydos*, *The Corsair*, *Lara* kabi dostonlar orqali u G‘arb va Sharq o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, estetik to‘qnashuvlar va ruhiy ziddiyatlarni poetik darajada aks ettira oldi. Bayron ijodida Sharq oddiy fon emas, balki ruhiy inqirozlar, axloqiy tanlovlar va ichki azoblarni ifoda etuvchi badiiy makonga aylanadi. Bu asarlarda diniy manbalar – Qur’on oyatlari, hadis hikmatlari, tasavvufiy qarashlar va fors she’riyati an’analari bevosita yoki bilvosita tarzda poetik shaklda talqin qilingan. Bayronning islomiy madaniyatga bo‘lgan qiziqishi sayohatlar davomida shakllangan bo‘lib, u Usmonli imperiyasida yashagan, musulmonlar hayotini ko‘zdan kechirgan va ular bilan yashab ko‘rgan shaxs sifatida o‘zining “Sharq” haqidagi tasavvurini bevosita tajribaga asoslagan.

Bayronning 1813-yilda Lord Hollandga yozgan xatida aytilishicha, u boshqalarning tasvirlaridan emas, balki o‘zi ko‘rgan voqealiklardan ilhom olgan. Aynan shuning uchun ham uning “Sharq”i boshqa G‘arb yozuvchilarining ideallashtirilgan “Sharq”idan tubdan farq qiladi – u yanada murakkab, ko‘p qatlamli, ba’zida esa ziddiyatli ko‘rinishga ega. Bayronning Sharqga bo‘lgan munosabati nafaqat madaniy, balki shaxsiy va ruhiy omillar bilan bog‘liq. Shoir bolaligida izolyatsiyada yashagan, ruhiy iztiroblar va identitet inqirozlarini boshdan kechirgan. Bu haqda Evans (2004) shunday yozadi:

“Bayron she’riyatida Sharq timsoli doimiy ravishda shaxsiy azob-uqubat va qutqaruv istagining konsentratsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi.” (Evans, 2004, p. 44)

Shoir 1809-yilda G‘arbiy Yevropani tark etib, O‘rta Yer dengizi va Usmonli imperiyasi hududlariga sayohat qiladi. Sayohat davomida u Albaniston, Gretsiya va Turkiya hududlarida yashaydi, musulmonlarning turmush tarzini o‘rganadi va bu tajriba uning ruhiy olamiga chuqur ta’sir qiladi. U Lord Hollandga yozgan mashhur xatida shunday deydi: “It is my story and my East… from having lived much with them and in their own way.” (Bayron, 1813). Bu ibora Bayron uchun Sharq — bu “boshqalarnikidan o‘g‘irlangan” manzara emas, balki o‘ziga xos shaxsiy tajriba, ruhiy muloqot va poetik shakllanish manbai ekanligini ko‘rsatadi.

Shoir asarlarida Ramazon oyining tugashi, masjid chiroqlari, jannatga oid hadislar kabi diniy va ijtimoiy belgilar kuchli poetik effektga ega. *The Giaour* asarida bayram oqshomi paytida yuz bergan ayanchli voqea dramatik ta’sir kuchini aynan diniy muhit orqali oshiradi.

“The Crescent glimmers on the hill,
The Mosque’s high lamps are quivering still...”

bu satrlar Ramazon oyining oxiri, Hayit arafasida yuz berayotgan voqealar fonida tasvirlanadi. Bu fojia diniy kontekst orqali yanada keskin dramatik kuch kasb etadi. Bayron o‘sha davrdagi G‘arb she’riyatida deyarli uchramaydigan tarzda islomiy estetikani poetik tilda ifoda etadi.

Bayron G‘arb o‘quvchisiga notanish bo‘lgan islomiy kontekstni poetik shaklda yaqinlashtiradi. Ba’zi izohlarida u hadislardan, Qur’on oyatlaridan g‘oyaviy ilhom olganini o‘zi ham ta’kidlaydi. “One third of Paradise is reserved for good women” satrini u diniy e’tiqodga asoslangan nuqtai nazar sifatida kiritadi. Bu kabi obrazlar uning asarlarida islom axloqi va ruhiy qadriyatlariga munosabatini ko‘rsatibgina qolmay, balki Bayronning Sharqqa bo‘lgan shaxsiy ichki munosabatini ham ochib beradi. Bayron bu satrlarda tanqidiy yondashgan bo’lsada, bu diniy asoslanmagan, ya’ni sahih hadisdan yiroq.

Nazariy jihatdan qaralganda, Bayronning “Sharq” obrazini yaratish uslubi Edward Saidning “Orientalism” kontsepsiyasiga yaqin turadi, ammo undan farqli ravishda, shoir nafaqat G‘arbning Sharq haqidagi stereotiplarini aks ettiradi, balki ularni poetik vosita sifatida qayta kodlaydi. Bayronning Sharq obrazlari asosan ruhiy va axloqiy izlanish bilan bog‘liq: u bu makonda o‘z qahramonlari

orqali ichki kechinmalarni aks ettiradi. Evans bu jarayonni “identitetning poetik demontaj qilinishi” deb ataydi. Bayron o‘zini G‘arbdan ajratgan holda, Sharqda o‘zini anglashga uringan, ammo baribir G‘arbga xos istaklar va cheklovlar bilan fikrlagan shoir sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa uning she’riyatidagi madaniy ziddiyatni kuchaytiradi.

Fors va so‘fiylik she’riyati bilan bevosita tanishgan Bayron ayrim tasavvufiy unsurlarini ingliz she’r tuzilmasiga uyg‘unlashtirishga ham harakat qiladi. Uning metaforalarida Yusuf va Zulayho, Layli va Majnun, Parvardigor va banda o‘rtasidagi nisbiylikdan ilhomlangan ramziylik mavjud. Bu ramziy tilning chuqurligi uni romantik davr she’riyatida o‘zgacha uslubda ajratib turadi.

Bayron asarlarida ko‘p uchraydigan “ichki iztirob, jazoga loyiq sevgi, halok bo‘lgan ayol” kabi motivlar islomiy axloqiy tamoyillar bilan muvofiqlashtiriladi. Bu esa uni soddalikdan yiroq, balki madaniy qatlamlarga ega poetik matnga aylantiradi. Bayron nafaqat romantik bo‘lishni, balki o‘quvchini madaniy kontekst bilan yuzma-yuz qoldirishni maqsad qilgan. Uning she’rlarida har bir Sharqiy obraz ikki tomonlama ma’no kasb etadi: bir tomondan, bu ekzotik manzara, ikkinchi tomondan, bu ichki fojianing markazidir.

Xulosa qilib aytganda, Bayronning “Sharq ertaklari” nafaqat G‘arb o‘quvchisi uchun Sharq madaniyatini estetik shaklda ochib beruvchi asarlar, balki madaniyatlararo anglashuv, ruhiy iztirob va poetik erkinlikni birlashtiruvchi adabiy yondashuvdir. Bayron Sharqni bilgan, his qilgan va u bilan yashagan shoir sifatida uni faqat ekzotik dekor emas, balki g‘oyaviy-ma’naviy maydon sifatida tasvirlaydi. Bu esa uni G‘arb she’riyatida noyob ijodkor sifatida ajratib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Byron, G.G. (1813). *The Giaour*. London: Thomas.

2. Oliver, S. (2005). *Byron’s Eastern Tales: Eastern Themes and Contexts*. In *Scott, Byron and the Poetics of Cultural Encounter* (pp. 156–201). London: Palgrave Macmillan UK.

3. Evans, H.G. (2004). *Representations of the East in the Poetry of Byron: A Study in Culture and Identity*. PhD Dissertation, University of Cambridge.

4. Said, E. (1978). *Orientalism*. New York: Vintage Books.

5. Deleuze, G., & Guattari, F. (2009). *A Thousand Plateaus: Capitalism and Schizophrenia*. University of Minnesota Press.

INKLYUZIV TA’LIM VA UNING TA’LIM TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI HAQIDA

Inomova Muyassar Furqatovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Mamlakatimizda ta’lim tizimini jaxon andozalari talablari darajasiga ko‘tarish, har tomonama yetuk, kuchli bilim va dunyoqarashga ega, barkamol

Мажидов Н.М. Место психолого-педагогических знаний в подготовке будущего учителя……666
Mamatkarimova F.A., Topchiyeva Z. O‘smirlarda tolerantlik xulqini shakllantirishdagi ijtimoiy-ruhiy omillar……669
Rajavaliyev B.D., Mannopov I. O‘zbek adabiyotida adabiy an’ana masalasi……672
Махмудов С.Ю. Подготовка преподавателей к использованию цифровых технологий: Стратегии и программы……676
Maxmudova G.N., Umirjonova M.J. Elevating educational quality: The foundation for a prosperous future……679
Mahkamboyeva M. O‘zbek va rus tillarida kelishik kategoriyasining qiyosiy tahlili……683
Mengziyotova F. Zahiriddin Muhammad Boburning “Xating aro uzoring sabza ichinda lola” g‘azalida she’riy san’atlar……687
Mehmonova O.R. Ta’limda sifatli kommunikatsiya olib borish.savol-javob diskursiga ta’sir etuvchi lingvopragmatik vositalar……690
Mizrobova D. “Tarixiy ong va tafakkurni shakllantirish – sifatli ta’limning asosiy omili……691
Mirusmanova Z.Z. Sharq manbalarining lord bayron she’riyati tematikasiga ta’siri: nazariy tahlil……694
Inomova M.F. Inklyuziv ta’lim va uning ta’lim taraqqiyotidagi o‘rni haqida……696
Nazarova N.T. Yoshlar tarbiyasida ajdodlar hissasi……700
Nazarova Sh. “Qorako’z majnun”asarida badiiy obrazlar talqini……703
Narzullayeva M.Sh. Ingliz va o'zbek tillarida morfemalarning funksional yaxlitligi……705
Насруллаева Д.О., Согукпинар Д.А. Идеи феноменологии Эдмунда Гуссерля……709
Nishonova A.A. O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning semantik tadqiqi……718
Nusratova U.J. "Zarbulmasal" asariining o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni……721
Olimova O‘.B. Ma’lum sheva topografiyasi va fonetik tabiati……723
Ortiqova H.M. Badiiy matn va assotsiativ tafakkur masalasi……728
Ochilova A.G‘. Educational interaction between uzbekistan and germany for the last decade……730
Pazliddinov Sh.Q. Muhammad Yusufning milliy xarakter yaratishdagi o‘ziga xos uslubi……734
Парпиев М.Т. Илк шарқ уйғониш даври алломалари ғояларининг замонавий жамиятдаги ўрни……738
Rasulova D.B. Tafakkurning uyg’onishi: Modern lirikada taraqqiyot qadriyatlari……743

“SIFATLI TA’LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI”

mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to`plami

2025-yil 19-may

Konferensiyaning telegramdagi rasmiy kanali
https://t.me/STTP_UZ